

MUSTAQIL ISHLAR KO'RIGI – BENEFISLAR

Qalandarov Usmon Egamberdiyevich

UrDU “San’at” kafedrası o’qituvchisi,

usmon-art@mail.ru

“Hech bir odam mukammal, ya’ni to’la shakllangan holda dunyoga kelmaydi, ammo uning butun hayoti betinim harakatdagi o’sish va doimiy shakllanishdan iborat”¹ – deydi V. G. Beleniskiy. Shu nuqtai nazardan ham mustaqil ishlar aktyorlik mahoratini egallashda ham juda katta ahamiyatga ega.

Talabalarining mustaqil o’z ustida ishlash ko’nikmasi aktyorlik san’ati ta’limida mashqlardan boshlanib, parchalar hamda rol ustida ishlash jarayonida – “o’z ustida ishlash” nomli murakkab amaliy va nazariy bosqichni qamrab oladi.

“Mashqsiz san’at bo’lmaganidek, san’atsiz mashq ham bo’lmaydi”² – degan edi, qadimgi yunon faylasufi Pratorgor. Darvoqe, har bir kasbning ustasi bo’lish uchun, shu kasbning talablarini tinimsiz mashqlar orqali bajarish va ularni to’g’ri bajarish ko’nikmasini shakllantirish lozim. Talaba-aktyorlar ilk qadamidan sahna san’ati sirlarini nazariy va amaliy asosini tashkil qiladigan talablarni o’rganishdan va amaliy o’zlashtirishdan boshlaydilar.

“Tarbiya ishida o’z-o’zini takomillashtirish jarayoniga katta o’rin berilmog’i lozim. Insoniyat faqat mustaqil o’rganish tufayligina taraqqiy etgan”³ – deb yozadi, G. Spenser. Mashqlar o’qituvchi nazorati ostida, muntazam o’tkazilib kelinishiga qaramasdan, talaba-aktyorlar uylarida, yotoqxonada yoki darsdan bo’sh vaqtlarida vazifani mustaqil o’zlashtirishga harakat qiladilar. Shuning uchun teatr san’ati ta’limida “mustaqil ishlash” ko’nikmasini shakllantirish eng nozik jarayonlardan biri hisoblanadi.

Mustaqil ishlar talaba-aktyorlarning o’qish va ijod jarayonlarining tarkibiy qismidir. Ular aktyorlik mahorati darslaridan tashqari sahna nutqi, sahna harakati va qo’shiqchilik darslaridan berilgan vazifalarni ham mustaqil o’zlashtirishga harakat qiladilar. Shu yo’nalishda mustaqil ishlab, erishilgan natijalardan ustozlarida va o’zida ishonch paydo bo’la boshlagan talabalar, o’zlarining xohish-istaklariga qarab, buyuk aktyorlar, dramaturglar, shoirlar, ustozlar ijodi yoki xotirasiga bag’ishlangan ijodiy kechalarni o’tkazishni rejalashtiradilar.

O’zlariga ishongan talabalar boshqalarga ma’lum bo’lmagan qirralarini namoyish qilish uchun shaxsiy ijodiy kechalarini – “Benefis”lar uyushtirishga ham harakat qiladilar. Bunday ijodiy kechalarda ular – she’rlar, monologlar, masallar, etyudlar, parchalar, ashula va raqslar bilan qatnashadilar. Ularga ajratilgan ma’lum vaqt mobaynida o’z iste’dodlarini namoyish etadilar. Texnologiyalar rivojlanayotgan davrda ular mustaqil ishlarini zamonaviy texnikalar yordamida ham boyitishga urinadilar. Ularning biron chet tilida she’r o’qishi yanada quvonchli yoki ustozlari e’tibor bermagan, ba’zan sezmagani qirralarining ochilishi bilan ham voqeaga aylanadi.

“Benefis”larda dramatik aktyorlarni biron cholg’uda kuy chalishiga, qo’shiq aytishiga, raqsga juda chiroyli tushishiga, she’r yozishiga, go’zal she’rlarni yoddan bilishiga, hazil mutoyibaga ustaligini namoyon qilganiga guvoxmiz. Haftaning ma’lum belgilangan kunida, “mustaqil ishlar ko’rigi” nomi bilan talabalar mustaqil tayyorlagan ijodiy ishlarini namoyish qiladigan daqiqalar talaba-aktyorlar tilida “Benefis” deb atalishi ham an’ana bo’lib qoldi.

¹ Тафаккур гулшани. –Т.: Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1989 . 130-бет.

² Ўша манба. 132-бет.

³ Тафаккур гулшани. –Т.: Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1989 . 130-бет.

“Benefis kuni”ni an’anaga aylantirgan aktyorlik kurslaridan Shoira Hamidova rahbarligidagi 2010 – 2011 o’quv yili bitiruvchilari, “IV estrada aktyorligi” va dotsent Jo’ra Maxmudov rahbarlik qilayotgan 2011 – 2012 o’quv yili “IV dramatik teatr va kino aktyorligi” kursi bitiruvchilari tomonidan haftaning har juma kunlari, an’anaviy – “Benefis”lar namoyishi o’tkazildi. Boshqa kurslardan ularning “mustaqil ishlar ko’rigi”ni farqi shundaki, har safar kursdagi bitta talaba o’z “Benefisi”ni namoyish qiladi. Ustaxonalarda shakllangan nomerlar 3 – 4 kursning oxiriga kelib, O’quv teatri sahnasida “Klass konsert” sifatida “mustaqil ishlar ko’rigi”ni tashkil qilishadi. Bu ko’riklar talabalar ijodida muhim ahamiyat kasb etaboshladi.

“Benefis – fransuzchada spektakldan kelgan foydani bir kishiga taqsimlash ma’nosini bildirgan”⁴. Talaba-aktyorlarning mustaqil ishlaridan keladigan foyda, ularning bizga noma’lum qirralarining ochilishi deb tushinsak balki to’g’riroq bo’lar. Shunday ekan, institutda an’anaga aylangan “Benefis”larni – talabalarning mustaqil ravishda, o’z xohish-istaklari asosida, qobiliyatlarini namoyish qiladigan “Mustaqil ishlar ko’rigi” yoki “Men nimaga qodirman” deb nomlansa maqsadga muvofiq bo’lar edi. Bu shakldagi tomoshani dissertatsiyada “Mustaqil ishlar ko’rigi” deb ataymiz. Sababi shundaki, har bir talaba-aktyor o’z ko’rigini namoyish qilar ekan – nima ko’rsatishni, ya’ni g’oya va badiiy shaklni, sahna bezaklarini, musiqani, sahnani yoritishni, kostyum va grimmi mustaqil tarzda, ijodiga mos ravishda hal qiladi. U o’z iqtidorini namoyish qilish uchun birorta g’oyani ilgari surishga intilib, beixtiyor o’zining dramaturgiyadagi, rejissuradagi va tashkilotchilik qirralarini ham sinovdan o’tkazadi. Eng muhimi “Benefis” ishtirokchisi – aktyor sifatida, sahnada mustaqil, erkin harakat qilishga, ijodga o’rganadi.

Mustaqil ishlar ko’rigi talaba-aktyorlarning nechanchi kursda o’qishidan qat’iy nazar, izlanishlari natijasini, kutilmagan ijodiy qirralarini namoyish qiladi. Ilk qadamda ular qaysidir mashhur ijodkorning ijrosiga taqlidan boshlasalar, o’zlarini ana shunday artist darajasiga erishishini orzu qilib, unga intilsalar, bora-bora o’zlari ham mustaqil “nomer”lar, sahna ko’rinishlari, bir aktyor teatri darajasidagi turli xil qiziqarli ijod namunalarini yarata boshlaydilar. Mustaqil ishlar ko’rigidan so’ng domlalar talabalarning nimaga qodirligini, qanday xarakterdagi rollarni uddalay olishligini qayta rejalashtiradilar. Talabalarning mustaqil ishlar ko’rigida ko’zga tashlanib qolgan yangi qirrasiga qarab ustoz rol tanlaydi va birgalikda kutilgan natijalarga erishiladi.

Dotsent Jo’ra Maxmudov rahbarlik qilayotgan “IV dramatik teatr va kino aktyorligi” bo’limida o’qiyotgan Ozod ismli talaba tashqi ko’rinishidan sahna talablariga javob berishiga qaramay, uning plastikasi, sahna nutqi, erkin harakat qilishi kursdoshlariga nisbatan ortda qolgan edi. U sahnada biror narsa ijro qilganida siqqligi ko’rinib turardi.

Ozod Qurbonov “Mustaqil ishlar ko’rigi”ga “Ustoz-shogird” deb nomlangan kichik sahna ko’rinishini kursdoshi Fariz Ismoilov yordamida tayyorladi. Ular hayot, jamiyat, san’at, institut talabalarida uchraydigan ayrim kamchilik va muammolarni, yengil kulgi bilan namoyish qilishdi. Olqishlarga sazovor bo’lgan Ozod, sahnada erkin harakat qilishga o’rgandi. Bu erkinlik unda bir aktyor teatri talablari asosida ijod qilish ko’nikmalarini paydo qila boshladi. Uning tinimsiz mustaqil izlanishlari unga xayrixoh muxlislarni paydo qildi. Ozodning o’ziga xos tomonlaridan biri shundaki, har bir kursdoshining mustaqil ishlarida mehmon sifatida qatnashadi. U har doim turli xarakterdagi insonlar nomidan, turli janrdagi monologlarni ijro qilib, sahnaviy yumor hissini boyitib bordi. Natijada, jiddiy va komediya janridagi she’rlar yozishning uddasidan chiqqa boshladi va tomoshabinlar qalbiga yo’l topa oldi. Muhimi uning bu izlanishlari va harakatini ko’rgan ustoz o’z qirrasini ochgan shogirdi xarakteriga mutloqo teskari bo’lgan N. V. Gogolning “O’lik jonlar” asari

⁴ Умаров М. Эстрада ва оммавий томошалар тарихи. –Т.: Янги аср авлоди, 2009. 228-бет.

(A. Bulgokov insenirovkasi) dagi Sobakevich rolini ishonch bilan topshirdi. Ozod bu qahramon xarakterini yaratish uchun astoydil kirishdi. Sobakevichning yurishi, qarashi, gapirishi, kulishi va boshqa o'ziga xoslik tomonlarini qidirib topishga harakat qildi. Ba'zi hollarda Sobakevich bo'lib institut yo'lagidagi ba'zi yigit-qizlarga o'z qahramoni xarakterida gap tashlab ko'rardi. U o'zi kutgan natijaga erisholmagandan keyin, qahramoni xarakteridan ko'ngli to'lmagach, biroz vaqtgacha siqilib yurgan paytlari ham bo'ldi. O'z roli ustida tinimsiz izlanib, mustaqil ishlashiga qaramay diplom spektaklining pragonigacha qahramoni xarakterini topa olmadi.

Ozod bir kuni xursand holda institutga keldi. U yo'lda bitta itni kuzatganini va uning o'ziga xos harakatlarini o'rganganini aytib berdi. So'ngra, bugundan boshlab sahnada endi shu itdek harakat qilishini aytdi. Pragon paytida uning harakatlarida o'ziga xoslikni, qahramon xarakteriga mos qarash va yurishlarni namoyish qila boshladi. Bu topilmalardan so'ng Sobakevichning kiyimi va grimi sahnada tamoman boshqa qiyofadagi odamni namoyon qildi. Shundagina uning o'z roli ustida tinimsiz mustaqil mehnat qilgani va ular behuda ketmaganligi oydinlashdi. Bu jarayon isbot talab qilmaydigan tirik dalil edi.

Talaba-aktyorning mustaqil ishlar ko'rigidagi izlanishlari, ustozlar kutmagan kuzatuvlari natijasini sahnada namoyish qilishlari, o'z ishiga ma'suliyat bilan qarash ko'nikmasini paydo qildi. Mustaqil ijod qilish ko'nikmasi, berilgan vazifani astoydil bajarish kabi kasb talab qilgan qirralarining ochishi uni o'zligini topganini isbotladi. Tajribali domlalar birinchi kursda shogirdlarini to'g'ri o'qitganiga ishonsa, ikkinchi kursdan boshlab o'z kursida "mustaqil ishlar ko'rigi"ni tashkil qiladi. Uchinchi kursdan boshlab ustoz bu ko'rikni haftaning belgilangan bir kunida namoyish qilishni an'anaga aylantiradi.

Talaba-rejissyorlarning "mustaqil ishlar ko'rigi" da ham, talaba-aktyorlarning dars jarayonlarida ochilmay qolgan qirralari namoyon bo'lib qoladi. Misol uchun, Shuxrat Abbosov rahbarligidagi "IV dramatik teatr rejissyorligi" kursining talabasi Obid Abdullayev tomonidan tayyorlangan, Shekspirning "Richard III" tragediyasi asosidagi "mustaqil ish ko'rigi" dagi Gloster rolini ijro qilgan, "III estrada aktyorligi" bo'limi talabasi, Ruslan Ibragimov o'zining ovoz imkoniyatini, musiqiy qobiliyatini, musiqa asboblari chala olish mahoratini tomoshabinlarga namoyon qilib, ularni qoyil qoldirdi. Keskin sahnalarda Richardning ashulalar aytishi va xarakteriga xos harakatlari bilan aktyorning o'ziga xos jixatlarini ochdi. Aktyor, rejissyor bergan vazifalarni bajarib o'zining qobiliyatini namoyish qilishga harakat qildi. Agarda bu asar diplom spektakli sifatida olinsa, shu talabaga Gloster roli berilsa va tragediya janrida sahnalashtirilsa, u janr talablarini bajarib, sahnada yuklatilgan og'ir yukni rejissyor yechimiga mos ijro qilishi mumkinligini isbotladi. Chunki, bu talaba "estrada aktyori"ning tragik qudrati borligini, aktyorlik imkoniyatlari kengligini mana shu rejissyorning mustaqil ishida o'zi uchun aniqladi. U gitarani qo'lga olib ashula aytgan vaqtida rejissyor topilmasi, aktyor imkoniyati, dramaturgning tragik qudrati yuzaga chiqdi. Bu imkoniyatdan to'g'ri foydalangan talaba endi, o'z ustida mustaqil ravishda, muntazam ishlab borib, shu asarni professional teatrda shu rejissyor bilan sahnalashtirsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu jarayon unga tabiat tomonidan berilgan imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishga buyuk turtki bo'lar edi. Ushbu mustaqil ish ko'rigi ham pedagoglar va talaba-aktyorlar uchun yana bir rejissyor va aktyorning kutilmagan qobiliyatini namuna darajasida ochib berdi. Demak, "mustaqil ishlar ko'rigi" talaba-rejissyorlarning ham o'ziga xos ochilmagan qirralarini namoyon qila oldi.

Navbatdagi mustaqil ishlar ko'rigida "IV dramatik teatr va kino aktyorligi" bo'limi talabasi Mannonov Sardorning "Sehrli niqob" deb nomlangan benefisida sodir bo'lgan voqeaga e'tibor qilsak. Mustaqil ish boshlanishidan oldin kurs rahbari, dotsent Jo'ra Maxmudov sahnaga chiqib tomoshabinlarga "Har bir qo'shiqchi o'zining qo'shig'ini aytishi kerak, har bir sozanda o'zining sozini chalishi kerak, har bir aktyor ham o'zini yaratishi kerak..."

Mannonov Sardor ham to'rt yil davomida o'zining qo'shig'ini yaratishga harakat qildi. Bugun to'rt yil davomida o'zi nimalarni qidirgan bo'lsa, nimalarga erishgan bo'lsa, sizlar bilan shuni baham ko'rmoqchi. Bu institutga kelgan har bir talaba o'zining ovozi bilan o'z qo'shig'ini aytsin, degan maqsadda kichkinagina dasturni sizlarning e'tiboringizga taqdim qilmoqchimiz" – degan so'zlari bilan shogirdiga omad tiladi. Bunday e'tibordan kuch olgan, ilhomlangan talaba bu ko'rikda o'zining bor ijodiy imkoniyatini namoyish qilishga harakat qildi.

Sardorning Benefisidagi bir nechta nomerlarni keltirib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lar. Qorng'i sahna. Qandaydir sehrli ovozdan, musiqadan insonga aylanishni istayotgan haykal o'rtasidagi diolog yangraydi. Chiroq yorishishi bilan sahnada bitta tanada ikkita inson qiyofasidagi erkak va ayol, ular o'zaro munosabatda paydo bo'ladi. Ular bir-birlari bilan kurashadilar, bir kelishuvga keladilar. Bunda talaba-aktyorning bitta o'zi, ikkita odamni o'zaro munosabatda jonlantirib, sahnada tomoshabinning e'tiborini qozongani taxsinga sazavor edi. Bu ko'rikda talabaning plastik ifodaviyligi ham namoyon bo'ldi.

Keyingi ko'rinishda Sardor – chemodan, kesilgan qo'l, shar orqali pantomima san'atiga qiziqishini namoyish qildi. Bu tomosha ingliz tilidagi ashulaga ulanib ketdi. Talabaning ingliz tilida erkin, jonli ashula ijro qilishi ham quvonarli holdir. Biz bu jarayonda yosh ijodkorning musiqiy qobiliyatiga, ovoz imkoniyatiga va til bilish darajasiga ham guvoh bo'ldik. Ashula, buyumsiz harakat mashqiga ulanib ketadi. Nomerda talaba musiqa shovqinida xuddi haqiqiy zarbli musiqa asboblari chalayotganday tomoshabinlarni ishontirdi va "udarnik" ni ular ko'z o'ngida namoyish qila oldi.

Sardor yaratgan nomerlarda uning ritm va musiqani eshitib, bir paytning o'zida musiqaga tushib harakat qilish uchun ancha mustaqil mehnat qilganligini ko'ramiz va qoyil qolamiz. Bularni ramziy ma'noda Sardorning o'zi yaratgan va kuylayotgan qo'shig'i desak mubolag'a bo'lmaydi. Navbatdagi sahna ko'rinishida talaba-aktyor "Diskoteka"da uchrab turadigan hodisalarni pantomima san'ati orqali ko'rsatishga harakat qildi. Natijada, pantomimaning ayrim joylarida tomoshabinni kuldirish uchun qiliq qilib, bachkana harakatlar qilishga o'tdi.

Bachkanalik aktyorlik san'atiga yot harakatlardan biridir. Keyingi nomerda Sardor o'zining taqlidiy san'atga ham moyilligini namoyon qilib, jaxon kino yulduzi mister Binga taqlidini ko'rsatdi. U shu qadar o'z ustida mustaqil ishlaganki, bu nomerni ko'rgan tomoshabin o'zi erishgan mahorati darajasidan lazzatlanib qilayotganining guvoxi bo'ladi. Uning taqlidi mister Bindan farqli bo'lib, har ikkala rolni ham o'zi ijro qildi. Birinchi, ziyoli kishini u syomka qilib olib, proyektor yordamida sahnada namoyish qilgan bo'lsa, ikkinchi "mister Bin"ni sahnada o'zi o'ynay boshladi. Bu talaba-aktyorning texnika vositalaridan unumli foydalanib, tomoshabin uchun qilgan yangiligi edi. Sardorning ko'rsatgan "Benefis"ida uning o'ziga xos xislatlari ochildi va tomoshabinlar olqishiga sazavor bo'ldi.

Demak, talabalarning ijodiy qirralari etyudlarda, parchalarda mustaqil ishlash natijasida shakllanadi va takomillashadi. Talabalarning ustozlari nazaridan chetda qolgan, ular tomonidan ochilmay qolgan ijodiy imkoniyatlari "mustaqil ishlar ko'rigi"da "Benefis"larda, rejissyorlarning mustaqil ishlarlarida o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi hamda diplom spektakllarida xarakter va obraz yaratish talablari darajasiga ko'tariladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Arestotel. Poetika. –T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1980.
2. Belinskiy V. Tanlangan asarlar. –T.: O'zbekiston nashryoti, 1955.
3. Tafakkur gulshani. –T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1989
4. Zaxava B. Masterstvo aktyora i rejissyora. –M.: Prosvesheniye, 1973.
5. Knebel M. O. Poeziya pedagogiki. –M.: Iskustvo, 1976.
6. Maxmudov J. Aktyorlik mahorati. –T.: O'zDSI, 2005.

7. Maxmudov J, Maxmudova X. Rejessura. –T.: O‘zDSI, 2005. Stanislavskiy K. S.
8. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
8. Stanislavskiy K. S. San’atdagi hayotim. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
9. Usmonov R. Rejessura. –T.: Fan, 1997.
10. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. –T.: Yangi asr avlodi, 2009.
11. Xoliqulova G. Sahna nutqi. –T.: O‘zDSI, 2008 yil.